

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN’ATI VA
IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI,
ZAMONAVIY TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari

2023-yil 23-sentabr

Бухоро – 2023

O‘zbek xalq musiqa san’ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari” // Mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani. Buxoro “Durdona” nashriyoti, 2023.

Anjumanning dasturiy qo‘mitasi

O.X. Xamidov	BuxDU Universitet rektori, rais;
T.H. Rasulov	BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
A.R. Zokirov	O‘zMMSI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
F.N.Nurulloyev	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i
S.S.Azimov	BuxDU San’atshunoslik fakulteti dekani.
T.I. Rajabov	BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi mudiri.
D.Yu.Ro‘ziyev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi professori, a‘zo;
B.I.Mustafoev	Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi dotsenti, a‘zo;
O.M.Axmedova	Yu.Rajabiy O‘zMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f.f.n., professor v.b
A.S.Sunatillayev	Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘lim boshlig‘i.

Anjumanning tashkiliy qo‘mitasi:

1. T.H. Rasulov BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
2. O.I. Karimov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi dotsenti;
3. O‘.U. Rashidov BuxDU Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
4. F.N. Nurulloyev BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a‘zo;
5. Sh.B.Nurlibayevna. Yu.Rajabiy O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedراسi mudiri
6. T.I. Rajabov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi mudiri.
7. R.I.Oripova Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat” kafedراسi mudiri
8. Sh.X.Kamolov BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi katta o‘qituvchisi, a‘zo;

Mas‘ul muharrir:

B.I.Mustafoev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi dotsenti

Taqrizchi:

D.Yu.Ro‘ziyev Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi professori

шу ҳам йўқ. Биз маҳалламизда жамоатчилик асосида (бепул) мусиқа тўғараги тузиб, 10 йилдан бери шогирдларга мусиқа санъатини ўргатиб келаяпмиз. Масалан, шогирд Азизбек билан “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам” достонидан 10 та номани ўрганиб, дoston мазмунини вазиятга қараб қисқа ва кенгрок вариантини тайёрлаб, 4 йилдан бери шу ва бошқа мавзулардаги суҳбат-концертларимиз билан мактаблар, мақом маркази, бухорча ансамбли, шунингдек БДУ мусиқа кафедрасида маҳорат дарслари ўқазиб, телекўрсатувларда мумтоз мусиқани тарғиб қилиб юрибмиз.

Муқаддас мумтоз мусиқий мерос борасида илмий тадқиқотлар олиб бориш учун айрим илмий ишлардаги сунъийлик, илмий саёзлик, кўчирмачилик, амалиётдан узоклик каби иллатларга барҳам бериб, амалга оширилган тажриба синов ишларининг эътиборга молик муайян ижобий, самарадор натижаларини умумлаштириш асосида диссертация, монография, ўқув қўлланма ва бошқа шакллардаги илмий ишлар тайёрлаб ҳимоя қилиш ёки нашр эттириш мумкин.

Хуллас, соҳадаги амалга оширилаётган барча педагогик ишларимиз униб, ўсиб келаётган ёш авлодни оғзаки анъанадаги мумтоз касбий мусиқа меросимиз, хусусан, дoston санъати қошонасига олиб кириш, уларнинг қалби ва онгу шуурига бекиёс дoston санъати оҳанглари сингдириш ҳамда мумтоз мусиқий меросимиз мазмун моҳиятини англайдиган, ундан мунтазам равишда бадиий-эстетик баҳра олишга эҳтиёж сезадиган, санъат воситасида гўзал инсоний фазилатларга эга бўлишга интиладиган баркамол инсон тарбиясига хизмат қилиши билан аҳамиятлидир.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги 2018 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3990-сон қарори.
2. “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2018 йил 22 ноябрдаги 946-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хақаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Ўзбекистон овози 2019-йил, 8- апрел. № 28-29 (32. 519).

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FOLKLOR ANSAMBLINI TASHKIL ETISHNING AMALIY - METODIK ASOSLARI

O.I.Karimov

*Buxoro davlat universiteti
musiqa ijrochiligi va madaniyat
kafedrasi dotsenti*

Ma'lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari jamoa tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. Keyinchalik esa xalqning iqtidorli kishilari tomonidan yaratilgan. Ular o'z ijodida qabila odamlari hohishlari, e'tiqodlari, atrof-muhit bilan munosabatlari hamda dunyoqarashlarini hikoya qiladilar.

Ijrochi va ijodkor asar yaratishda o'rgangan tajribaga suyanadi. Unga ijodiy yondashib, uni sharoitga moslashtiradi. Jamoa tomonidan yaratilgan asarlar shu tariqa takomillashtirilib, xalq mulkiga aylanadi. Zero, xalq kuychisi (dostonchi, latifachi, ertakchi, qo'shiqchi, askiyachi) jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni boshidan - oxirigacha so'zma - so'z yoddan aytmaydi, balki unga ijodiy munosabatda bo'lib, o'zidan nimadir qo'shadi. Istiqlol yillariga kelib folklore san'ati uni targ'ib etuvchi ansambllariga bo'lgan qiziqish va e'tibor yanada kuchaydi.

Maktab o'quvchilarini, ularga kasb-hunarga muhabbat tuyg'usini shakllantirish ilm, kasb-hunarga yo'llash ta'lim xodimlari oldida turgan bosh masalalardan biri hisoblanadi. Bu ulkan vazifani hal etishda musiqiy to'garaklarda tashkil etiladigan bolalar folklor ansambli katta imkoniyatlarga ega. Uni tashkil etish esa, to'garak rahbaridan xalq ijodi yo'lini, uning janrlarini va o'ziga xos chegaralarini bilishni talab qiladi. Xalq qo'shiqlariga murojaat qilishning o'zigina juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uni faol o'zlashtirish esa o'quvchilarning xalq musiqasiga

bo'lgan mehrini oshiradi, rivojlantiradi, qiziqishlarini va o'z navbatida vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat tuyg'usini tarbiyalaydi.

Folklor ansambli boshlang'ich sinf o'quvchilaridan yoki o'smirlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Bolalar kichik yoshidan boshlab o'yin holatida o'rgatiladigan har-xil aytishuvlar, hazil qo'shiqlari va allalarni jon dillari bilan qabul qiladilar. O'zbek folklor asarlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Urf - odat va marosimlar bilan bog'liq asarlar;
2. Turli urf-odat va marosimlarga bog'liq bo'lmagan folklor asarlari

Birinchi guruhga: mehnat, mavsum, marosim, olqish, afsun va qarg'ishlar, aytilar kiradi.

Ikkinchi guruhga: doston, ertak, afsona, rivoyat, lof, latifa, qo'shiq, ashula, termalar, askiya, og'zaki dramalar, maqol, topishmoq o'rin olgan.

Ansambli repertuariga xalq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek basrakorlarining asarlaridan ham kiritish mumkin. Ular mazmun jihatidan bolalar uchun tushunarli bo'lishi, ularda qiziqish uyg'otishi va shu bilan birga ijro etish imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Murakkab asarlardan foydalanish esa tovush hosil qilish malakasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va nafas organlari faoliyatining buzilishiga olib keladi

O'quvchilarga zaruriy ijrochilik malakalarini shakllantirish uchun xalq ijrochiligi yo'lidagi qo'shiqlarni tabiiy, jarangdor qilib kuylashga erishishga yordam beruvchi turli mashqlardan foydalaniladi.

Bu sohada endigina ish boshlayotgan o'qituvchi yoki to'garak rahbari shunga e'tibor berishi kerakki, faol ijro etish xalq an'analari bilan hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan tovush zo'riqishiga aylanib qolmasligi kerak. Xalq musiqasidan tashkil topgan konsertlarga borish, shuningdek, texnika vositalari yordamida bunday asarlarni tinglash va uni tahlil qilish o'quvchilarning tinglash madaniyatini, musiqiy didini, dunyoqarashini shakllanishiga yordam beradi.

Bolalar folklori ansambli bilan ishlash, o'qituvchidan qo'shiq materialini qunt bilan tahlil qilishini, xalq qo'shiqlari, yozuvlarini tinglashni va o'rganishni, repertuarni mukammal o'zlashtirish yo'llari va vositalarini izlab topishi kerak.

Birinchi guruhga oid bo'lgan mehnat qo'shiqlarining yaratilishi va ijro etilishi, kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liq holda mehnatni yengillashtirishga qaratilgan ko'tarinkilik, xushchaqchaqlik va didaktik xarakterda bo'ladi. Mehnat va san'atning o'zaro munosabati ana shu muhim masalalardan biridir. Chunki, "Mehnatsiz hayotning go'zalligini chin qalbdan his qilish mumkin emas, o'z o'rnida go'zallikni his qila olmaydigan inson biror - bir mukammal narsani yaratishga qodir emas".

Ona zaminga muhabbat va hurmat, uni ardoqlab, noz - ne'mat yaratuvchi insonga hurmat tuyg'usini tarbiyalash, ularni ana shunday insonlar boshlagan xayrli ishni davom ettirishga undab, kasb - hunarni ulug'lovchi quyidagi qo'shiqqa o'quvchilarning diqqatini jalb etish maqsadga muvofiqdir:

Bo'z to'qiyimiz qirog'ini o'xshatib,
Moki otaman dastginamni qaqshatib.
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib,
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.

O'qituvchi yoki to'garak rahbari kosibchilik hunari O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy kasbikorlaridan elanligini gapirib, bu mehnat turi uzoq o'tmishdagi "Buyuk ipak yo'li" davrida ancha takomillashgani va hozirgi kunda esa hurmat va e'tibor topganligini alohida ta'kidlashi katta ahamiyat kasb etadi.

Bunday mehnat qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki ijodida, bastakorlarimiz hamda kompozitorlar ijodida juda ko'plab topiladi. Bu mehnat qo'shiqlari o'quvchilarni birinchi tomondan mehnatsevarlikka o'rgatsa, ikkinchi tomondan musiqiy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Bundan tashqari xalq musiqa ijodida urf-odat va mavsum - marosim qo'shiqlari hamda ularga bog'liq bo'lmagan qo'shiqlar ya'ni, yalla, ashula, terma, lapar va maqomlar mavjud bo'lib, bu asarlardan to'garak rahbari o'z faoliyati davomida unumli foydalanishi lozim. Bunday

xalq durdonalarini to‘garak faoliyatida to‘g‘ri qo‘llay bilish, o‘quvchilarni unga qiziqtirish to‘garak rahbaridan mohirlikni talab etadi.

To‘garakni tashkil etishda oila bilan hamkorlik

To‘garak o‘quvchilarining musiqiy -estetik tarbiyasida oilaning o‘rni juda muhimdir. Chunki, o‘quvchilarning ma‘naviy ehtiyojlarini, san‘atga bo‘lgan qiziqish va ijodiy munosabatlarini, badiiy faoliyatga ishtiyoqlarini hamda madaniy ko‘nikmalarini shakllantirishda ko‘p narsa ota-onalarning san‘at haqidagi tushunchalari va unga bo‘lgan munosabatlariga bog‘liqdir. To‘garak faoliyatlari mashulotlarini tashkil etishda “musiqa - bolalar - ota-onalar” muammosi o‘tkir namoyon bo‘ladi.

Oilada musiqa tinglash, konsertlarga, musiqali teatrlarga borish, musiqa va musiqachilar haqidagi adabiyotlarni o‘qish kabi bolalar bilan ishlash usullari, o‘quvchilar musiqiy faoliyatida ota-onalarning bevosita ishtirok etishi nazarda tutiladi. Shuning uchun to‘garak rahbari eng avvalo har bir o‘quvchi oilasining ma‘naviy muhitini va madaniy darajasini o‘rganishi, ota-onalar, oiladagi katta yoshli kishilarning musiqa san‘atiga bo‘lgan qiziqishlarini va ularni o‘z farzandlarining musiqa mashg‘ulotlariga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash zarur.

Bunday ma‘lumotlar har bir aniq xollarda ota-onalari bilan yakka tartibda olib boriladigan metodik ishlarni biror maqsadga qaratilganligi haqida va shuningdek, oilaning o‘quvchilar musiqiy tarbiyasini tashkil etishdagi mavjud sharoit va yordami haqidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi.

O‘quv-tarbiyaviy ishlarni samarali amalga oshirish sharoitlaridan biri o‘quvchilar musiqiy o‘zlashtirishning ilmiy asoslangan belgilarini aniqlash hisoblanadi. So‘ngi yillarda pedagogik adabiyotlarda bolalar musiqiy o‘zlashtirish darajasini aniqlash usullariga alohida e‘tibor berildi. Ota-onalarga bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishlarini orttiruvchi bir qator uy topshiriqlarini taklif etishni maslahat berish mumkin. Masalan: tinglangan yangi musiqa asari haqidagi taassurotlarni hisobga olish uchun birgalikda kundalik joriy qilish. Birinchi sinfda bunday yozuvlarni ota-onalar yozib beradilar. Keyingi sinflarda bolalar mustaqil bajara boshlaydilar. O‘qituvchi, to‘garak rahbari bilan ota-onalarning birgalikdagi harakati musiqa tarbiyasi metodikasi yuzasidan oilada o‘quvchilar badiiy idrok qilish madaniyatini shakllantirish va ularni qurshab turgan musiqiy hayot voqealariga nisbatan hissiy anglash munosabatlarini rivojlantirishga harakat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar).-T., 1994-yil.
2. Imomnazarov M. Milliy ma‘naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.- T.: «Sharq», 1998-yil.
3. Musabekova S.I. Musiqa tarbiyasi.- T.: «O‘qituvchi», 1973-yil.
4. Solomonova T.Ye. O‘zbek musiqasi tarixi.-T.: «O‘qituvchi», 1981-yil.

К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ КАРАКАЛПАКСКОЙ ТРАДИЦИОННОЙ МУЗЫКИ

**Бердиханова Шахида Нурлыбаевна,
Доктор философии по искусствоведению (PhD), заведующий кафедрой «Истории и теории узбекского макома» Узбекского национального института музыкального искусства им. Юнуса Раджаби,
Узбекистан г.Ташкент**

Аннотация: В статье рассматривается проблема изучения каракалпакской традиционной музыки, в трудах музыковедов, филологов-фольклористов. Автор также, затрагиваются вопросы научно-теоретического освещения музыкального искусства каракалпаков.

Ключевые слова: Каракалпакская музыка, искусство, жанр, классификация, традиции, исполнительство, дастанное творчество, фольклор.

Аннотация: Мақолада мусиқашунос ва фольклоршунос олимларининг олиб борган тадқиқотларида қорақалпоқ анъанавий мусиқа жанрлари таснифи муаммолари ёритилган. Муаллиф шунингдек, қорақалпоқ мусиқа санъатини илмий назарий ўрганиш борасидаги айрим масалаларга ҳам тухталиб ўтган.

MUNDARIJA

O.X.Xamidov. O'zbek xalq musiqa san'ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari 3

1-SHO'BA . HOZIRGI DAVR TARAQQIYOT BOSQICHIDA MUSIQA IJROCHILIGI, MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLAR.....4

Saidiy Said Boltazoda. AVESTO DAVRINING XORAZM VA SUG'DIYONA MUSIQA MAKTABLARI MADANIYATIDA IJROCHILIK USLUBLARI 4

Askar Xidirov. O'ZBEK MUSIQA SAN'ATINING QADIMIY ILDIZLARI TARIXIDAN.....6

Toshmurodov Bahridin Umarovich. ZARDUSHTIY VA BUDDAVIYLAR DAVRI OMMAVIY MUSIQA VA BADIY SAN'AT TARIXI VA TURLARI 8

Pirmatova Nodira Yigitaliyevna. Ayol san'atkorlarining ijrochilik vositalari..... 10

Рустамов Шавкат Шухратович. СУЩНОСТЬ ИННОВАЦИЙ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ..... 12

Kamolov Shavkatjon Hadjiyevich. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari 14

Nusratova Mexriniso Baxshilloevna. ALTRUIZM FENOMENINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MANBALARDAGI ILMIY ASOSLARI..... 15

Farhodjon NAZAROV. BADIY VA ESTETIK QARASHLARI 17

Samatova Dilnoza Salaidinovna. CHOLG'U SOZLARI VA IJROCHILIK IMKONIYATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 20

Qarshiboyev Zohidjon O'ralboy o'g'li. O'QUVCHI YOSHLAR BILAN ISHLASHDA IJODIY-MADANIY HAMKORLIKNING SAMARADORLIGI..... 22

Sh.K.O'rinov. DAVLAT VA NODAVLAT TEATRLARDA MARKETING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY MODELLARI 24

Расулов Равшан. ЭСТРАДА САЊАТИДА ЖАНР 28

Bafoev Nodirshoh. XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGINING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATLI QIRRALARI..... 30

Hamitova Sunbula Bahodir qizi. O'ZBEK TEATRLARIDA REJISSURADAGI MUAMMO VA YECHIMLAR 32

Saodat Sadullayeva. IJTIMOIIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR – MADANIY-OMMAVIY TADBIRLAR SENARIYSIDA 34

Nilufar Shamsiyeva. BOSHQARUVNING AMERIKA, YAPON VA SHVED MODELLARI . 38

Shahrizoda Muhammadiy. MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI MARKETINGNI TASHKIL QILISH..... 40

2-SHO'BA. O'ZBEK XALQ MUSIQA FOLKLORINI O'RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI;.....43

To'xtasin Rajabov Ibodovich, Sardorbek Ibodov To'xtasin o'g'li. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari 43

Axmedova Oygul Maxamataliyevna. O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH MASALALARI 47

А.Э.Кўшаев, И.А.Кўшаев, И.И.Ахтамов. ОЛИЙ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА БАХШИЛИК ДОСТОН САЊАТИ АСОСЛАРИНИ ЎРГАНИШ МУАММОЛАРИ 49

O.I.Karimov. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FOLKLOR ANSAMBLINI TASHKIL ETISHNING AMALIY - METODIK ASOSLARI 51

Бердиханова Шахида Нурлыбаевна. К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ КАРАКАЛПАКСКОЙ ТРАДИЦИОННОЙ МУЗЫКИ 53

T.D.Muxamedov, Samandarova Madina G'ayrat qizi. BAXSHICHILIK SAN'ATI – UMUMINSONIY QADRIYAT..... 56